XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 8-avgust VI-87-116-2-36-K/24 Kogon tumani

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Kogon tumanida “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini samarali yoʻlga qoʻyish toʻgʻrisida Soʻngi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali aholi ongida shakllangan “suv — tekin” tushunchasidan voz kechish hamda suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni davom ettirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar tumanimizda ham tizimli davom ettirilib kelinmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi boʻgʻinda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 79-sonli qarorlariga asosan tumandagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini samarali yoʻlga qoʻyish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-va 127-moddalariga asosan hamda “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida Kogon tuman suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi direktori I.Amonovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Kogon tuman Kengashining 2024 yil 10 iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risidagi VI-85-84-2-36-K/24-sonli qarorining 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3.“Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini moliyaviy ta’minlash maqsadida suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foizga oshirilishi hisobiga tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun belgilangan daromadlari va xarajatlari miqdori 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N Jumayev) zimmasiga yuklatilsin

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi  DJABAROVA ZAMIRA SHUKUROVNA

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2024-yil 8-avgustdagi
VI-87-116-2-36-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Kogon tumanida “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini moliyaviy ta’minlash maisadida tegishli mahalliy budjetlarning 2024 yil daromadlari va xarajatlarini oshirish miqdorlari

mln so‘mda

№	Hudud nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq prognozi	2024 yilda suv solig‘i bo‘yicha tushumlarni 40% ga oshirish rejasi	2024 yilda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalarini saqlash uchun xarajatlarni oshirish rejasi
1	Kogon tumani	4 198,0	1679,0	1679,0